

"O'zkimyosanoat" Ajda buyuk bobokalonlarimiz xotirasiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi

// 13.02.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-ajda-manaviy-marifiy-tadbir>



"O'zkimyosanoat" Ajda buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi, so'z mulkingning sultoni - Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligi munosabati bilan "Alisher Navoiy va Bobur merosi - beqiyos ma'naviy xazinadir" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Unda "O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati, ijro apparati xodimlari, shuningdek, masofadan turib online ravishda tarmoq korxonalari vakillari ham ishtirok etishdi. Shuningdek, tadbirga O'zbek milliy akademik drama teatridan elimiz sevgan san'atkorlar - Rixsitilla Abdullayev va Nigina Anarbayevalar tashrif buyurishdi.


Ma'naviy-ma'rifiy tadbir davomida "O'zkimyosanoat" AJ ijro apparati xodimlari hamda tarmoq korxonalari vakillari tomonidan buyuk ajdodlarimizning bebaho ijod namunalari asosida tayyorlangan badiiy chiqishlar, kuy va qo'shiqlar ijro etildi.











"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati